

Tarjima Jarayonida Sifatlar Bilan Bog 'Liq Ayrim Muammolar

Rahimova Umida Abdurazzoq qizi¹, Xodjayeva S. S.²

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjima jarayonida sifatlar bilan bog'liq ayrim muammolarga bag'ishlanadi. Bu maqolada biz sifatlarda sinonimlar va ko'pma'nolilik, sifatarning darajalari va ularning ifodasi, sifatarni kontekstga mos o'zgartirish zaruriyati va sifatarning bugungi kunda tarjima jarayonida qanchalar muhimligini batafsil ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Tarjima, sifatlarda sinonimlik, tarjima jarayoni, tarjima mohiyati, so'z san'ati, tarjimaning hayotimizdagi o'rni, tarjima jarayonidagi ayrim xatolar.

Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidir. Chunki san'atning boshqa turlari (tasviriy san'at, musiqa, raqs) tarjimasiz ham barchaga tushunarlidir.

Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi va kinofilmlar ham tarjima qilinib boshqa tilga o'giriladi.

Bilamizki qadim zamonlardan butun dunyo xalqlarini bir biri bilan bog'lab turuvchi asosiy omillardan biri bu til hisoblanadi va har bir millat vakillari muloqot jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Buning sababi har bir xalqda o'ziga xos so'zlar, iboralar, milliylik va an'nalar, tarixiy tillar va xarakterlar mavjud. Tabiiyki bunday muammolarga yechim topishda tarjima va tarjimonlarning hissasi beqiyos.

Shuningdek, tarjima jarayonida sifatlar tilning asosiy va muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat predmet yoki hodisaning xususiyatini ifodalaydi, balki tilning uslubiy va madaniy boyligini ham namoyon qiladi. Ammo tarjima jarayonida sifatlar bilan ishlashda bir qator muammolar yuzaga keladi.

Sifatlar ko'pincha ma'lum bir tilga xos bo'lgan madaniy va semantik ma'nolarni o'z ichiga oladi. Masalan "oq" sifati o'zbek tilida sof, poklikni anglatadi, ayrim xalqlar madaniyatida bu motam yoki qayg'uni anglatishi mumkin. Shu sababli tarjimon sifat ma'nosini kontekstga mos holda to'g'ri talqin qilishi lozim. Sifatlarni tarjima qilishda kontekst va madaniy o'ziga xosliklarni chuqur tahlil qilish kerak. Zarurat bo'lganida, izoh yoki sinonimlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'p tillarda bir xil sifat turli sinonimlarga ega bo'lib, tarjimada qaysi sinonimdan foydalanish masalasi muammo tug'dirishi mumkin. Masalan, "chiroyli" so'zining ingliz tilidagi tarjimasi "beautiful", "pretty", yoki "lovely" kabi turli sinonimlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun sinonimlarni tanlashda matnning uslubi, mazmuni va konteksti hisobga olinishi kerak.

Turli tillarda sifatarning gap ichidagi joylashuvi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida sifatlar otning oldidan keladi. Masalan, "a red car", o'zbek tilida esa sifatlar otning oldidan yoki ba'zan keyin kelishi mumkin: "qizil mashina", "mashina qizil".

Bunday vaziyatlarda gap qurilishini tilning grammatik qoidalariga moslashtirish kerak. Bundan tashqari har bir tilda sifatarning darajalari turlicha ifodalanadi. Misol uchun, oddiy, qiyosiy va

¹ O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti 1-bosqich talabasi, rahimovaumida665@gmail.com

² Ilmiy rahbar



orttirma darajalar mavjud. O‘zbek tilidagi “eng chiroyli” so‘zining ingliz tilidagi muqobili “the most beautiful” shaklida bo‘ladi. Biroq ayrim tillarda darajalarni ifodalash usullari aniq mos kelmaydi. Bunday hollarda darajalashning ma‘nosini saqlab qolishga e‘tiborli bo‘lish lozim va mumkin bo‘lgan hollarda kontestga qarab so‘zlarning tarjima tilidagi muqobilini berish mumkin. Shu bilan birgalikda sifatlar o‘zida uslubiy va hissiy boylikni ham mujassamlashtiradi va ba‘zan tarjima jarayonida obrazlilikni saqlash qiyin bo‘ladi. Masalan, “so‘lim tabiat” iborasining chet tiliga tarjimasida hissiy boylikni va ta‘sirchanlikni yo‘qotish ehtimoli yuqori. Shu sababli sifatning obrazdagi ma‘nosini asliyatdagidek ifodalash uchun metaforalar, sinonimlar va boshqa uslubiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish kerak. Ba‘zan sifatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa ma‘no noaniq bo‘lib qoladi: “qattiq uzr so‘radi” iborasidagi qattiq so‘zini “severely” deb tarjima qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Shu kabi holatlarda sifatning funksiyasini va ularning boshqa so‘zlar bilan munosabatini aniqlash muhim o‘rin tutadi.

Bir sifat turli kontekstlarda turlicha ma‘nolarga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi “light” so‘zini misol qilib oladigan bo‘lsak “yengil” yoki “och rang” ma‘nolarini anglatishi mumkin, bu esa tarjima jarayonida tarjimon kontekstga muhim e‘tibor qaratishi lozim. Aks holda so‘z ma‘nosi butunlay o‘zgarib kontekstga mos kelmay qolish ehtimoli yuqori darajada.

Ingliz tilida sifatlar ko‘pincha birlashtirib ishlatiladi: “well-maintained vehicle” – “yaxshi saqlangan transport vositasi”. Bunday tuzilmalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon qiyinchilikka duch kelishi mumkin, chunki hamma tillarda ham shu kabi tuzilmalar mavjud emas.

Yana bir tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan muammolardan biri shuki, sifatlar madaniy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ular har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Masalan ingliz tilidagi “cheap” so‘zi “arzon” ma‘nosida ishlatilishi mumkin, ammo ba‘zan bu so‘z biroq salbiy ohangga ega bo‘lishi, boshqa tillarda esa bu ohangdagi mazmun mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Ispan var us tillari kabi ba‘zi tillarda sifatlar otning jinsi va soniga moslashishi kerak, ingliz va o‘zbek tili kabi tillarda esa sifatlar o‘z shaklida qoladi, ya‘ni o‘zgarmaydi. Ayniqsa manba tilida bunday grammatik xususiyatlar bo‘lmasa, tarjima murakkablashadi. Sister Carry" rus tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri "Сестра Керри" deb tarjima qilingan, biroq o‘zbek tiliga u "Baxtiqaro Kerri" nomi bilan o‘zgartiriladi. Asar ichida ham tarjimon bu so‘zni "jajji Kerri" yoki "kichkina Kerri" kabi ma‘noni turli ko‘rinishlari bilan ifodalagan.

She was eighteen years of age, bright, timid and full of the illusions of ignorance and youth.

Karolina endigina o‘n sakkizga to‘lgan. U esli-hushli, biroz tortinchoqroq qiz bo‘lib, yoshlik va g‘o‘rlik yillarida kishini tinch qo‘ymaydigan shirin orzulari olamida charx urardi.

Bu gapda "bright" sifati ishlatilgan bo‘lib, uni yorug‘, quyuq, tim, aqlli, zukko, zehqli, nurli, omadli, quvnoq, xursand kabi bir qancha ma‘nolari mavjud. "timid" sifatini esa qo‘rqoq, yuraksiz, jur‘atsiz, iboli, uyatchan, tortinchoq kabi ma‘nolari mavjud. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzida yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliymonand vositalar tanlab ifoda etishidir. Bu mas‘uliyat uning zimmasiga avvalo, asliyat ma‘no va vazifasini bekamu-ko‘st idrok etish songra xotirasida shakllangan fikrni o‘z tili madaniyati va me‘yori asosida to‘la-to‘kis ifoda etish vazifasini yuklaydi.

Ushbu muammolardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, tarjimon tarjima jarayonida sifatlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun madaniy va lingvistik tafovutlarni hisobga olishi, kontekstga mos yondashishi, shuningdek, o‘z ustida muntazam ishlashi kerak. Tarjima bu nafaqat lug‘aviy, balki badiiy va madaniy jarayon hisoblanadi. Shu bois, sifatlar tarjimasida mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti . 5-bet.
2. G‘aybullay Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. 95-bet.



3. Khodjayeva S.S. National Characteristics in Translations from English to Uzbek American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol. 2, No.1 (Jan, 2025)
<https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/998/854>
4. Khodjayeva S.S. The Challenges of Translating Compounds in English and Uzbek ACADEMIA Pedagogy 2024, Vol. 1№3(2024) <https://scopusacademia.org/index.php/psf/article/view/1160>

